



UDK:930

*Mavluda SAXOBIDINOVA,*  
*Olmalik davlat texnika instituti assistenti*  
*E-mail: mavludasaxobidinova@gmail.com*

*CHDPU dotsenti, p.f.d S.Toshtemirova taqrizi asosida*

## TURKISTONDA CHOR ROSSIYASINING TA'LIMDA AMALGA OSHIRGAN SIYOSATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xususan, Turkiston Rus mustamlakasi tomonidan bosib olinganidan so'ng mustamlakachi hukumatning hududdagi har bir sohada o'z tuzumini o'rnatar ekan ta'limda ham har bir general-gubernatorning kelishi bilan o'zgarib borgan siyosat, yurtimizda rus-tuzem ta'lim tizimini joriy etish uchun amalga oshirilgan harakatlar, o'ziga xos siyosat usullari, bu borada chiqarilgan qonunlar va chora-tadbirlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** "Bepisandlik" siyosati, K.P Kaufman, "Andijon qo'zg'oloni", Iminskiy, Qozoq qishloqlari, aralashmaslik tamoyili, "ruslashtirish".

## THE POLICY OF TSARIST RUSSIA IN THE FIELD OF EDUCATION IN TURKESTAN

Annotation

This article examines the educational policy pursued by the colonial administration in Central Asia – particularly in Turkestan— after its conquest by the Russian Empire. It discusses how each newly appointed governor-general introduced changes to the educational sphere as part of establishing the colonial system, the measures taken to implement the Russo-native (Russian–indigenous) educational model, the specific political approaches adopted in this process, as well as the laws and administrative actions enacted in this regard.

**Key words:** "Policy of neglect," K.P. Kaufman, "Andijan uprising," Iminsky, Kazakh villages, non-interference principle, "Russification."

## ПОЛИТИКА ЦАРСКОЙ РОССИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В статье рассматривается образовательная политика, проводившаяся колониальной администрацией в Центральной Азии, в частности в Туркестане, после его завоевания Российской империей. Анализируются изменения в сфере образования, внесённые каждым новым генерал-губернатором в процессе установления колониального порядка, меры по внедрению русско-туземной (русско-местной) системы обучения, применявшиеся политические методы, а также законы и административные шаги, предпринятые в данном направлении.

**Ключевые слова:** «Политика пренебрежения», К.П. Кауфман, «Андижанское восстание», Ильминский, казахские аулы, принцип невмешательства, «руссификация».

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyoga amalga oshirilgan rus bosqinidan so'ng mustamlaka hukumatining asosiy maqsadi hududni ham moddiy ham ma'naviy jihatdan Rossiyaning bir qismiga aylantirishdan iborat edi. Zotan bu maqsad yo'lidagi o'rganish ishlari bosqin uyushtirilmasidan avval, bu yerga yuborilgan turli xil elchi, savdogar, sayyohlar vositasida boshlab yuborilgan bo'lib, ular o'lkani ham iqtisodiy ham ijtimoiy ham siyosiy va ma'naviy jihatdan o'rganib ulgurgan edilar. Bu o'rganish ishlari natijasini esa biz ularning o'lkani qo'lga kiritishdagi ustuliklari va undan keyingi olib borgan siyosatlaridan yaqqol bilib olishimiz mumkin. Bosilgan har bir qadam vaziyatdan kelib chiqib va puxta reja asosida amalga oshirilgani biz uchun endi sir emas albatta. Bu rejalar orasida eng asosiysi esa o'lkada o'zlariga qarshi chiqolmaydigan xalqni shakllantirish bo'lgani tabiiy. Bu yo'lda yani o'lkani ruslashtirishdagi asosiy yo'l sifatida ular ta'limni ko'rishdi. Shu maqsadda endi ular Turkistonda rus-tuzem maktablar tizimini shakllantirish harakatiga tushdilar.

Chorizmining Turkistondagi yerli aholining madaniyati va tiliga nisbatan tutgan siyosatining dastlabki tamoyili "bepisandlik" siyosati (политика игнорирования) edi. Bu siyosat yerli xalqlarning tili va madaniyati, an'anaviy ta'lim tizimiga befarq qarash, an'anaviy ta'lim tizimini oyoqda tutib turgan vaqflar tizimini bekor qilish va oxir – oqibatda yerli aholini rus mustamlaka ma'muriyati barpo etgan rus-tuzem

maktablariga jalb qilish orqali assimilyatsiya qilish yo'li edi[3]. Ya'ni bu yo'lda chor hukumati maktab madrasalarning asosiy ta'minoti uchun ajratilgan vaqf mulklarini bekor qilish orqali ta'limni kuchsizlantirishga harakat qilganlar. Mustamlakachi hukumat uchun ta'lim ham bir vosita edi.

**Tadqiqot metodologiya.** Turkiston o'lasidagi ma'orif sohasidagi siyosat general-gubernatorlar buyruqlari asosida olib borilgan. Ta'lim siyosatida belgilangan maqsadlar mahalliy xalqlarning etiqodiga qat'iy aralashmaslik tamoyiliga amal etilgan holda davr ma'tbuotida e'lon qilingan. Turkistonning birinchi general-gebrnatori fon Kaufman o'lkadagi ma'orif sohasiga alohida e'tibor qaratgan.

Shu munosabat bilan u 1869-yilda Rossiya Xalq ma'orifi vazirligiga Turkistondagi ta'lim tizimini atroflicha tadqiq etishlarini so'rab murojat qilgan, ammo ular vazifani to'laqonli muvaffaqiyatli bajara oladigan mutaxasis yo'qligini bildirishgan. Ayni paytda esa Qozonda faoliyat olib borayotgan Iminskiydan maslahat olish taklif etilgan[6].

XIX asrga qadar rus bo'lmagan mahalliy aholining ta'limidan tushnilgan narsa xristianlashtirish faoliyati edi. Iminskiy timsolida rus bo'lmaganlarni xristianlashtirishda ta'limdan foydalanish bo'yicha yangi izlanishlar jonlana boshladi.

Chor hukmronligi chegaralarida rus tilini ta'lim va muloqot tiliga aylantirish maqsadida olib borilgan bu madaniy millatchilik siyosatining rahbari Nikolay Ivanovich Iminskiy

Qozon universiteti diniy akademiyasida turk shevalari va ilohiyotshunosligi bo'yicha ishlagan edi. Ilminskiyning Aleksandr tomonidan qo'llab-quvvatlangan ta'lim tizimi rus tili va nasroniylikning kuchayib borayotgan, rus millatchiligining aksi sifatida tarqalishi va yanada tizimli ravishda amalga oshirilishiga imkon berdi[5]. Ilminskiy ishlab chiqqan konsepsiyaga muvofiq provaslab ruxoniylari olib borayotgan missionerlik harakatining tag zamirida yotgan "ruslashtirish" ni ta'lim orqali amalga oshirish tizimli va samarali bo'lishiga ishongan edi.

Rossiyada musulmon millatlarni bir-biridan ajratib tashlash siyosatiga asos solganlardan biri N.I Ilminskiy edi. 1884-yilda u mahalliy millat bolalarini etnik kelib chiqishiga qarab, bir-biridan ajratgan holda o'qitish taklifi bilan chiqdi. Unga ko'ra, "jiddiy musulmon" bo'lgan sartlar "u qadar musulmonchilikka rioya qilmaydigan va odat qonunlari bilan yashovchi" ko'chmanchi qozoqlarni o'z taraflariga tortib ketishi mumkin edi. Bundan tashqari, Ilminskiy sart va qozoqlarni rus gimnaziya va oliy o'quv yurtlariga qabul qilmaslikni taklif qildi. Uningcha, gimnaziya va universitetlarni tamomlagan g'ayridinlar hech qachon rus bo'lmaydi, aksincha "yevropalik" ka aylanib, qolgan millatdoshlari ko'zini ochadi. Ilminskiyning bu siyosatini Turkistonda targ'iboti va tatbiqi bilan uning sodiq o'quvchisi Nikolay Ostroumov mashg'ul bo'ldi. Ostroumov bu siyosatning amaliyochisi sifatida Gasprinskiyning fikr va g'oyalari Turkiston o'lkasiga kirib kelishi va yoyilishiga qarshi imkon qadar yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Ostroumovga bu ta'rifni Ilminskiyning o'zi berdi. Ostroumovning musulmonlar va umuman islom borasida qilgan izlanishlari, e'lon qilingan asar va maqolalari Ilminskiyning ajratib tashlash siyosatining mohiyatini ochib beradi. Uning "Turkiston Viloyatining Gazeti" dagi yuqori mazmundagi deyarli barcha maqolalari tahlilga tortilsa, musulmonlarga nisbatan ishonchsizlikni va ularni bir-biriga yaqinlashtirmaslikni targ'ib qilganligi yaqqol ko'rinib turadi. Agar Gasprinskiy orzu qilganidek, Rossiyaning musulmon bo'lgan turkiy millatlari birlashsa, Ilminskiy va uning izdoshlari fikriga ko'ra, ular albatta Rossiya davlatiga qarshi qo'zg'oladi[1]. Umuman olganda yuqoridagi fikrlarning asosida ruslarning hujum taktikasining ko'rinishi qurolli hujmdan, mafkuraviy hujmga o'zgargan edi.

Ostroumovning ta'kidlashicha, biz birinchi navbatda general-adyutant Kaufmanning mahalliy maktablar to'g'risidagi fikrining noto'g'riligini ochiq tan olishimiz kerak, ya'ni ularni o'z ixtiyoriga qoldirib, ularning ichki hayotiga aralashmaslik kerak, chunki bu maktablar hayotga mos emas va yangi ehtiyojlar, hayotning yangi talablari, ular javob berishga qodir emas, bu bizni tabiiy ravishda o'limga olib keladi. Bu yerda hukmronligimiz 40 yil davomida tatar o'qituvchilarining tor fanatik va to'liq ta'siriga tushib qolganligi sababli ona maktablaridan o'tgan, ta'lim-tarbiya ta'sirimizdan tashqarida bo'lgan[2].

**Tahlil va natijalar.** Tilni rejalashtirish - davlat tomonidan ongli, tizimli va ketma-ket tazyiqlar bilan xalq orasida so'zlashuvchi tilni tartibga solish yoki kerakli shaklga keltirish faoliyatidir. Chor Rossiyasi Turkiston xalqi so'zlashadigan tilga aralashib, Turkiston xalqini rus tili atrofida birlashtirib, rus rahnamoligida ushlab turishga harakat qildi. Rus musulmonlari o'rtasida o'tkaziladigan bu alifbo o'yinlari, shevalarni rasmiy til sifatida qabul qilib, kitoblar chop etish, har bir qabila o'z tiliga ega qilib ko'rsatilishi Turkistonda yashagan turk qabilalarini bir-biridan ajrata boshladi[7]. Rossiya imperiyasi uzoq vaqt davomida amalda bo'lgan "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" siyosatini Turkiston hududida ham izchil ravishda amalga oshirib kelgan. Ushbu siyosatning mafkuraviy poydevorini Ilminskiy tizimi tashkil etgan bo'lib, uning asosiy maqsadi mintaqadagi turkiy xalqlarni o'zaro tushunmaydigan va begonalashgan ijtimoiy

guruhlariga aylantirish edi. Bu siyosat doirasida turli millatlar uchun alohida yozuv tizimlari joriy etilib, hatto bir tilda mavjud bo'lmagan tovushlar boshqa tillarga kiritilgan, bu esa umumiy muloqotni yanada murakkablashtirgan. Bunday sun'iy murakkabliklarga yechim sifatida esa rus tilini o'rganish targ'ib qilingan. Natijada, ta'limning asosiy tili sifatida rus tilining joriy etilishi orqali mahalliy xalqlarni ruslashtirish siyosati amalga oshirilgan va bu maqsad ma'lum darajada amalga oshgan.

1858-1861 yillarda ishlagan N.I Ilminskiy. Orenburg chegara komissiyasining nazorat xodimi, qozoq cho'li bo'ylab bir qator sayohatlarni amalga oshirdi, birinchilardan bo'lib qozoq tilini o'rganishni boshladi, qozoq-ruscha lug'at, birinchi grammatika, rus tilining o'z-o'zini o'qitish qo'llanmasini yaratdi. Qozoqlar uchun birinchi marta "Er-targ'in" she'rini yozib, nashr ettirdi. Qozoq qishloqlariga tashrif buyurib, u o'z hisobotida saqlanib qolgan boyliliklari afsonalar va urf-odatlar bilan uni maftun etgan qozoq xalqiga oshiq bo'lganini yozadi[9]. 1868-yildagi ma'muriy islohotlardan so'ng, viloyatlar va okruglarning tashkil etilishi va ularda ta'lim tizimli yo'lga qo'yilishi albatta "yumshollik" bilan amalga oshirilgan. Bunday siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad xalq orasida shubxaga yo'l qo'ymaslik va ulardan muxolifat xosil qilmaslik bo'lgan.

Darhaqiqat shuni aytish kerakki ta'lim tizimini xalqning ongi va shurini egallashning eng ideal ko'rinishiga aylantirish fikrini ilgari surgan Ilminskiyning ta'lim tizimi uchun ishlab chiqqan g'oyasi o'z davri uchun muvaffiqiyatli deb topildi va joriy etildi. Bugun biz ko'rib turgan O'rta Osiyoning asrlar davomida tili, dini, urf-odatlari mushtarak bo'lgan xalqlarini ma'naviy jihatdan ajratib yuborishdagi bosh qahramonlardan biri Ilminskiy bo'lganligidan shubxa yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Albatta u ilgari surgan g'oyalardan keyinchalik voz kechilgan bo'lsada, holat u kelmasidan avvalgi o'rniga qaytdi deb aytib bo'lmaydi, chunki mohiyat o'zgaragan edi.

Kaufman Turkistonning o'ziga xos sharoitlari bor deb o'yladi. Kaufmanning fikricha, bunday sharoitda bu mintaqada imperiyaning boshqa qismlarida amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatini bevosita amalga oshirish yaxshi natija bermasligi mumkin. Turkiston general-gubernatorligining birinchi gubernatori Kaufman mintaqada aholisini xristianlashtirish xavfi bilan qo'rqitish dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin deb o'ylagan. Kaufman mintaqada missionerlik faoliyatiga qarshi edi. Kaufmanning fikricha, mahalliy bolalarni rus maktablariga jalb qilish uchun maktablarda xristianlashtirish siyosati yuritilmasligi kerak. Faqat mahalliy bolalar uchun keng tarqalgan. Insonparvarlik qadriyatlarini berish orqali Rossiya fuqaroligi ongini kengaytirishga harakat qilish kerak edi. Agar maktablarda mahalliy bolalar o'rtasida nasroniylik targ'iboti olib borilmasa, mahalliy oilalar o'z farzandlarini maktablarga bema'lol o'qishga yuborishlari mumkin, deb o'ylardi. Shuning uchun maktablardagi xristian dini darslariga faqat rus bolalari qatnashardi[8]. Turkiston general-gubernatorligi tuzilganidan so'ng hukumat xalq orasida o'z g'oyalarni tarqatishda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ldi, asrlar davomida shakllanib kelayotgan din, qadriyat va an'analarga qarshi keskin munosabatda bo'lishdan saqlandi.

1868 yilda Turkiston general-gubernatori Kaufman Turkistonda ta'limga oid asosiy tamoyillarni belgilab berdi. Shunga ko'ra, Turkistonda milliy ta'limni yo'lga qo'yish uchun diniy jihatlar emas, umuminsoniy tarbiya asoslari olinishi kerak. Ularning yordami bilan pravoslav nasroniylarni ham, musulmonlarni ham Rossiyaning birdek foydali fuqarolari qilish mumkin. Musulmon maktablari va rus maktablari bir-biridan ajralib turmasligi kerak, maktablarda dinga ko'ra ajralish bo'lmasligi kerak, ya'ni barcha rus bolalari diniy ta'limdan qat'i nazar, umumiy ta'limdan birdek

foydalana olishlari kerak. Chunki mahalliy aholi ma'muriyatning barcha faoliyatiga shubha bilan qaraydi, ularga nisbatan ta'limdan foydalanish xalqning diniy e'tiqodini buzmaslik va kelajakka munosib zamin tayyorlashning eng to'g'ri yo'li edi. Bu fikrlardan Kaufman missionerlardan farqli fikrlarga ega bo'lgan degan xulosaga kelmasligimiz kerak. Chunki, uning fikricha, ruslar muqaddas kitobining asosini tashkil etuvchi g'oyalar mahalliy xalq orasida yoyilgach, islomga sadoqat o'z-o'zidan zaiflashib ketar edi. Kaufmanning missionerlardan farq qiladigan jihati yakuniy maqsad emas, balki erishiladigan yo'l edi. Kaufman ta'lim nasroniy va musulmon xalqiga teng berilishi kerakligini ta'kidladi. Rossiya ta'lim muassasalarida dastlab islomiy darslarga ruxsat berilgan bo'lsa-da, keyinchalik ular bekor qilindi. Rus bolalari uchun xristian dini darslari davom etdi. Asosan musulmon aholi soliqlari hisobiga ochilgan rus maktablarida bu borada tenglik mavjud emas edi[4].

**Xulosa va takliflar.** Mustamlaka ma'muriyatining Turkistonda ruslashtirishdan iborat maktab tizimi chorizm

tomonidan Volga bo'ylarida yashovchi xalq uchun ma'qullangan "Ilminskiy tizimi"dan farq qilar edi. Qozoq pedagogi Ilminskiy Volga bo'yidagi chuvashlar, mariylar va boshqa xalqlar uchun alohida rus va mahalliy aholi maktablari ochgan edi. Bu maktablarda o'qish dastlab bolalarning ona tillarida olib borilar, rus tili esa alohida fan sifatida o'qitilar edi. Shu bilan birga, hamma darsliklar xristian dinini targ'ib qilish ruhida tuzilgan edi. Bulardan farqli ravishda, islom dini ta'siri kuchli bo'lgan Turkistonning mahalliy aholisi o'rtasida xristianlar missionerligiga ruxsat etilmasdi, buning ustiga rus maktablarida musulmon dinini o'qitish man etilgandi. Tashkil etilgan ushbu maktablarda mahalliy aholi ayniqsa o'zbek bolalari juda ozchilikni tashkil etgan. Oddiy xalq orasida rus-tuzem maktablarida o'qish, o'qitish uchun targ'ibot va majburlov choralarini ko'rilgan bo'lsa, mahalliy xalq orasida ham ular qilayotgan targ'ibotning aksi uchun musulmon ruhoniylari yetarlicha harakat qilayotgan edilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdirashidov Z. Tarjimon (1883 – 1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. Trk dili va edebiyati arařtırmaları dergisi sayı / number: 22. – B. 21-22.
2. Алимова Д.А. История образования в архивных источниках, том I. 2015.- С. 41.
3. Eltazarov J. D. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiologik tahlil). Samarqand 2017. –B 12-13
4. Gramentsky S: "Norodcheskoye Obrazovaniye V Turkestanskom Kraye", TV, 2, (18 yanvar 1900).
5. Kutay stn, Metehan Karakurt. Ilminskiy'nin eęitim sistemi zerinden rus milliyetęiliginin kisa bir okumasi. Karadeniz Uluslararası Bilimsel Dergi Volume: 42, Summer-2019. - S -B.178.
6. Muhiddinov.S.M. XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Samarqand viloyati ma'orifi holati va muammolari. Tarix.f.f.d.(PhD) ...diss... Smarqand – 2020.- B. 15.
7. Salih Bayar. 19. Yzyilda ęarlik rusya'sinin trkistan coęrafyasında eęitim ve kltr politikaları (yksek lisans tezi). Kastamonu – 2019.- S. 51-52.
8. Tmen somuncuolu. Trkstan'da eitm (1865-1917) ve ęarlik rusya'sinin sosyopolitik aęidan etme yaklashimi. Doktora tezi Ankara-2006.-B 82-83.
9. Захаренко А.Л, Лимчан К.А. Церковь и просвещение народа в северном казахстане и поволжье середине хіх - начале хх в. Исторические науки. Вестник ПГУМЗ 2003 г.- С. 102.